

## DEFEKTOLOGIYA FANINING O'ZBEKISTONDA RIVOJLANISH BOSQICHLARI

*Adhamova Ma'muraxon Akbarjon qizi*  
*Farg'ona pedagogika kolleji o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Maqolada aqliy va jismoniy rivojlanishda buzilishlar yuz bergan bolalarni o'rganish, o'qitish, tarbiyalash va mehnatga tayyorlash haqidagi fan bo'lgan defektologiyaning maqsadi anomal bolaning kamol topish xususiyatlari muhokama qilingan.

**Tayanch so'zlar:** defektologiya, parsial, tiflopedagogika, oligofrenopedagogika, [surdopedagogika](#), logopediya, maxsus didaktika, nevrofiziologik.

### KIRISH

Aqliy va jismoniy rivojlanishda buzilishlar yuz bergan bolalarni o'rganish, o'qitish, tarbiyalash va mehnatga tayyorlash haqidagi fan bo'lgan defektologiyaning maqsadi anomal bolaning kamol topish xususiyatlarini hisobga olgan holda uning psixik rivojlanishdagi kamchiliklarini bartaraf etishga maksimal darajada yordam beradigan deferensiyalashtirilgan ta'lim shart-sharoitini belgilashdir.

Defektologiya fan sifatida maxsus pedagogika va psixologiyaning turli tarmoqlarini surdopedagogika va surdopsixologiya, oligofrenopedagogika-psixologiya, tiflopedagogika – tiflopsixologiya: nutq buzilishlar pedagogika – psixologiyasini o'z [ichiga oluvchi logopediya](#), quloq og'irligi va ko'z zaifligini o'z ichiga oladigan parsial (juz'iy) defektlar haqidagi ta'limotlar kiradi. Anomal bolalarni klinik nevrofiziologik jihatdagi o'rganish bo'limlari defektologiya tarkibiga kiradi.

### ASOSIY QISM

Defektologiya o'zining asosiy tadqiqotlarini ikkita muhim bo'limga yo'naltiradi: 1) anomal bolalar kamol topib borishining qonuniyatlari va xususiyatlarini psixik-pedagogik va klinik-fiziologik jihatdan o'rganish; 2) anomal bolaning har bir turi uchun maxsus ta'lim va tarbiya sistemasini ilmiy asoslab berish. Defektologiya [tibbiyot](#), fiziologiya, oliy nerv sistemasi fiziologiyasi bilan o'zaro aloqalar sistemasida uning umumiy pedagogika bilan o'zaro aloqalari markaziy o'rinda turadi. Chunki maxsus pedagogikaning har bir bo'limi, surdopedagogika, tiflopedagogika, oligofrenopedagogika kamchiligi bor bolalarni o'qitish va har tomonlama kamol toptirishni maqsad qilib qo'yadi.

Defektologiya ta'limning umumiy pedagogikada ishlab [chiqilgan mazmuniga tayanib](#), turli kategoriyadagi anomal bolalarning imkoniyatlariga tayanib, bu kategoriyaning har biri uchun bilim berishning o'z sistemasini yaratdi. Defektologiya umumiy pedagogikada qo'llaniladigan metodlar va didaktik prinsiplardan foydalanib,

anomal bolalarning turli kategoriyalari qonuniyatlari va xususiyatlariga tayanib o`z usullari va metodlarini hamda maxsus didaktikani ishlab chiqadi.

Maxsus maktabgacha tarbiya va maxsus maktab muassasalari shaxobchalarini rivojlantirish va ularning strukturasi asoslash va ishlab chiqarish – mehnat tayyorgarligining mundarijasini belgilash, ta`lim va tarbiyaning [maxsus didaktik sistemalarini](#), ta`lim va tarbiyaning usullari va metodlarini ishlab chiqish, shuningdek, kamchiliklar o`rnini to`ldirishning korreksiyasi va kompensasiyasini texnika vositalari sistemasini yaratish shu jumlagi kiradi.

Defektologyaning shu asosiy vazifalarini hozirgi bosqichda muvaffaqiyat bilan amalga oshirishga defektologiyaning umumiy pedagogika va psixologiya, tibbiyot, umumiy fiziologiya bilan mustahkam aloqasi tufayli bilimning boshqa ko`pgina tarmoqlarida erishilgan yutuqlaridan har tomonlama foydalanish tufayli erishildi.

Anomal bolalarning psixologik xususiyatlarini o`rganishda defektologiya umumiy psixologiyaga asoslanadi. Anomal bola psixik kamol topishining asosiy qonuniyatlarini o`rganish shuni ko`rsatadiki, bu qonuniyatlar norma uchun ham potologiya uchun ham bittadir. Bunda kamol topishdagi kamchiliklarni analiz qilish umumiy, xususiy va alohidalikning birligidan iborat, dialektik prinsipi yaqqol tasdiqlab, anomal kamol topishning o`ziga xos xususiyati bo`ladi, bu xususiyat kamol topishida kamchiligi bor hamma bolalar uchun ma`lum [darajada xarakterlidir](#), bu esa ularni o`z normal tengqurlaridan farq qiladi. Psixik jarayonlarning etarli suratda o`tib etmasligida ifodalanadigan xususiyatlar, aqliy faoliyatdagi xarakteri va teranligi jihatidan turlicha bo`lgan kamchiliklar, harakatga oid sohalarning, nutq o`shining kamchiliklari yoki o`ziga xosligi va boshqalar shunday xususiyatlar [jumlasiga kiradiki](#), bu narsa shu bolalarning muomala vositalarining ma`lum bir darajada buzilishiga, ularning atrofidagi dunyoni bilishlaridagi kamchiliklarga, ular ijtimoiy tajribasining qashshoqlashuviga olib keladi hamda ijtimoiy va mehnat adaptatsiyasida qiyinchiliklar tug`diradi. Shu bilan birga anomal rivojlanishning har bir turi defektning ma`lum bir konkret turiga bog`liq holda o`ziga xos, g`oyat murakkab spesifik xususiyatlariga ega bo`lib, bu xususiyatlar bir kategoriyadagi anomal bolalarni boshqa kategoriyalaridan ajratib turadi.

Defektologiyaning har bir tarmog`i boshqa fanlar bilan o`ziga xos ravishda va ko`p tomonlama aloqadadir. Ko`rish afferentatsiyasining buzilishi bilan bog`liq bo`lgan kamol topib borishidagi anomalialar vaqtida mahrum bo`lingan yoki buzilgan ko`rish qobiliyatini qayta tiklash yo`llari va metodlarini ishlab chiqishga oid ko`pgina muhim masalalarni tiflopedagogika va tiflopsixologiyaning oftalmologiya bilan mutsahkam aloqasini ta`minlamay turib muvaffaqiyat bilan hal etib bo`lmaydi.

Defektologiya tarixi. 1920 yilga qadar bizning o`lkamizda, ya`ni O`rta Osiyo mintaqasida defektologiya sohasida deyarli ko`zga ko`rinadigan ishlar qilinmagan. Shu bois bu sohani o`rganishda ma`lum yutuqlarga erishgan chet el va rus

defektologlarini maxsus qilingan ishlaridan foydalanishga ehtiyoj sezamis. O`rta Osiyo 1920- yilgacha bu turdaga birorta maxsus muassasa yo`q edi. Chor rossiyasida esa nuqsonlilar ta`lim-tarbiyasi bilan shug`ullanadigan sinflar, hayriya jamiyatlari mavjud edi. Mamlakatda avj olib ketgan yuqumli kasallik, ochlik, tozalikka xilof sharoitlar, har xil shikastlanishlar va boshqa bir qancha sabablar keltirib chiqargan bolalardagi nuqsonlilik juda keng tarqalgan edi, bu sohada juda ko`pgina ishlar qilindi. Toshkentda 18 ta o`quvchisi bo`lgan ko`r va karlar boshpanasi ochilib, keyinchachik u nuqsonli bolalar Toshkent maktabiga aylantirildi. Shu bilan bir qatorda Toshkentdagi ayrim umumiy maktablar huzurida aqliy zaif bolalar sinflari ochilib, 1933- yilda 66 yordamchi maktabga birlashgan mustaqil aqli zaif bolalar ta`lim-tarbiyasi muassasasi yuzaga keldi.

Respublikamizda maxsus maktablar uchun oliy ma`lumotli defektologlar tayyorlash ishi 1967-yilda O`rta Osiyoda birinchi bo`lib boshlangan edi. Dastlab Toshkentdagi Nizomiy nomli pedagogika institutining pedagogika va psixologiya fakulteti qoshida, hozirda esa mustaqil fakultet bunday mutaxassisliklarni tayyorlashmoqda. 2001- yil Samarqand shahrida Samarqand davlat universiteti Pedagogika fakulteti qoshida defektologaya bo`limi ochildi.

### XULOSA

Keyingi yillarda ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar ham alohida maxsus ta`lim-tarbiya olishmoqda. Hozirgi kunda Buxoro va Qo`qonda shu toifa bolalar maktablari, Toshkentda esa 30 dan ziyod tenglashtirish sinflari mavjud. Samarqand shahrining o`zida bir qancha maxsus maktablar va nuqsonli bolalar tarbiyasi muassasalari mavjud.

### FOYADALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Краткий дефектологический словарь / Гл. ред. А. И. Дьячков; Редкол.: Н. Ф. Слезина, Ю. А. Кулагин, Л. В. Нейман, Ф. Ф. Рау, Б. Л. Бараш. Академия педагогических наук РСФСР. НИИ дефектологии.. — М.: Просвещение, 1964. — 400 с. — 10 000 экз. (в пер.)
2. Коррекция и профилактика нарушений поведения у детей с ограниченными возможностями здоровья. — М.: МГППУ, 2011. — ISBN 978-5-94051-081-9.
3. Лич Д. Прикладной анализ поведения. Методики инклюзии учащихся с РАС. — М. : Оперант, 2015. — С. 153-164. — 176 с. — ISBN 978-5-9906841-1-9.